

MUSTAQILLIK YILLARIDA TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR***Mirzaodilova Robiya Muxiddin qizi****(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti 303-guruh talabasi)****Abdullahayev Begzodbek Xusniddin o‘g‘li****(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti o‘qituvchisi)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonning mustaqillik yillarda ta’lim sohasidagi islohotlar va ta’limni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan qonunlar, milliy dasturlar, ularning maqsad va vazifalari qisqacha bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, professor-o‘qituvchilar, “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonun, kasb-hunar kollejlar, Oliy Attestatsiya Komissiyasi, Fanlar akademiyasi, ilmiy tadqiqotlar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, Respublika Vazirlar Mahkamasi, mutaxassislar tayyorlash.

Abstract: This article briefly describes the reforms in the field of education and the laws adopted for the development of education in the years of independence of Uzbekistan, national programs, their goals and objectives.

Key words: National personnel training program, professors and teachers, Law "On Education", vocational colleges, Higher Attestation Commission, Academy of Sciences, scientific research, socio-political actions, Cabinet of Ministers of the Republic, training of specialists.

Mustaqillik yillarda O‘zbekiston Respublikasida islohotlarni boshidan kechirgan va natijasini ko‘rsata olgan sohalardan biri ta’lim tizimidir. O‘zbekiston ilm-fanga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Zamonning tezkor taraqqiyotiga xizmat qiluvchi yangi fan sohalari bo‘yicha tadqiqotlar yo‘lga qo‘yildi. Tabiiy va aniq fanlarni o‘qitish va ilmiy tadqiqotlar olib borish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasida ilm-fanni rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining o‘rni beqiyosdir. Shuningdek, respublika oliy ta’lim muassasalaridagi professor-o‘qituvchilar faoliyatining salmoqli qismi ilmiy tadqiqotlarga qaratilganligi o‘z samarasini bera boshladi. “Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi” O‘zbekistonda ilm-u fan rivojlanishiga bosh maqsadlardan biri etib belgilandi. 1992-yilda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentining farmoniga binoan Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy Attestatsiya Komissiyasi tashkil etilishi munosabati bilan Fanlar Akademiyasining mavqeい ortdi. Xuddi shu 2-avgustda “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonun ham qabul qilindi va ushbu qonun 23-avgustdan kuchga kirdi. Mazkur qonunning asosiy vazifasini ”Ta’lim to‘g‘risidagi qonunlar fuqarolarning ilm olish sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, jismoniy va

yuridik shaxslarning ta'limgan sohasidagi o'zaro munosabatlarining prinsiplari, huquq vakolatlari vamas'uliyatlarini, O'zbekiston Respublikasida ta'limgan erkin rivojlanishining huquqiy kafolatlarini belgilab beradi".(2-modda) orqali bilish mumkin. Bu qonunning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat edi: ta'limgan va tarbiyaning insonparvarligi hamda demokratikligi; ta'limgan tizimining uzlusizligi va izchilligi; davlat ta'limgan tizimining ilmiyligi va dunyoviyligi; ta'limgan umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarning ustuvorligi; davlat ta'limgan standartlari doirasida hammaning ta'limgan olishi uchun imkoniyat yaratilganligi; tayanch (to'qqiz sinf hajmidagi) ta'limgan majburiyligi; ta'limgan, ma'naviy va jismoniy tarbiya dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv; bilimdonlik va iste'dodni rag'batlantirish; ta'limgan muassasalarida chet tillarni o'rganish, din tarixi va jamiyat madaniyati sohasida bilim olish uchun sharoitlar yaratish; ta'limgan muassasalarining siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlarning ta'siridan holi bo'lishi; tarbiyalanuvchilar va ta'limgan oluvchilarni hurmatlash; pedagog shaxsini, uning ijtimoiy mavqeyini hurmatlash; amaldagi qonunlar doirasida mulkchilikning barcha shakllaridagi talim muassasalarining teng huquqliligi, ularning mustaqilligidan iboratdir.

Shuningdek, 1997-yil 29-avgustda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" qonun qabul qilindi . Ma'lumki, «Ta'limgan to'g'risidagi Qonun»va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» (1997 yil 29-avgustda qabul qilingan) qabul qilingach, ta'limgan tizimi tubdan isloh qilina boshlandi. Bu muhim hujjatlarga ko`ra respublikamizda kasb-hunar kollejlarini jadal sur`atlar bilan rivojlantirish chora tadbirdari belgilangan. Bu birinchidan mutaxassislar tayyorlash sifatiga bog`liq bo`lsa, ikkinchi tomondan o`quv yurtining zamonaviy texnologiyalar bilan ta`minlanganligiga bog`liq. Kasb-hunar kolleji muhandis-pedagog xodimlari oldiga tayyorlanayotgan ishchi kadrlarga ilmiy dunyoqarashni, mehnatga ijodiy munosabatini tarkib toptirish ularda yuksak mehnat intizomini va madaniyatini, jamoa oldida burch his-tuyg`ularini tarbiyalash kabi vazifalarni qo`yadi.Milliy dasturning asosiy maqsadi: ta'limgan sohasini tubdan isloh qilish, uni o`tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to`la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak manaviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir. Jamiyatda sodir bo`layotgan bugungi yangiliklar hamda iqtisodiy o`zgarishlar ta'limgan tizimiga xususan o`rta maxsus kasb-hunar ta'limgan boshqacha yondashishni talab qiladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy amalga oshirish vazifalaridan biri ta'limgan oluvchilarning tayyorgarlik sifati va ixtisosiga zaruriy talablarni, ularning madaniy va ma'naviy-ruhiy darajalarini aniqlab beruvchi davlat ta'limgan standartlarini yaratish va tatbiq etishdir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O‘zRning kadrlar tayyorlash milliy dasturi —1997 -yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9-sessiyasida prezident I. A. Karimov tashabbusi bilan qabul qilingan. Dasturning maqsadi ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qoliplardan to‘la xalos etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlashning rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi, yuksak ma’naviy va axloqiy talablariga javob beruvchi milliy tizimini yaratishdan iborat. K.t.m.d. O‘zRning —Ta’lim to‘g‘risida||gi qonuni (1997 y. Avg.) qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo‘lib,milliy tajribaning tahlili va jahon miqyosi ta’lim tizimidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiyligini va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faoliyikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida” 2002-yil 20-fevraldagagi farmoni ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalar sifatiga qo‘yilgan talablarga muvofiq iolmiy texnika va innovatsiya faoliyatini yanada rivojlantirishda, shuningdek, mamlakat ilmiy salohiyatidan samarali foydalanishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.Respublikaning ilmiy tadqiqot majmuuni Akademiya, oliy ta’lim va boshqa tarmoqlaridagi 350 dan ortiq muassasani, jumladan, ilmiy tadqiqot institutlari, oliy o‘quv yurtlaridagi ilmiy tadqiqot bo‘linmalari, loyiha konstrukturlik tashkilotlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarini va tajriba korxonalarini, axborot-hisoblash markazlari o‘z ichiga oladi. 2006-yildagi natijalar bo‘yicha fanning turli tarmoqlari bo‘yicha 34 mingdan ortiq ilmiy xodim faoliyat ko‘rsatgan. Ularning 2.4 mingi fan doktori, 2.4 mingi fan nomzodlari edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.T., 2017 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni., 2017 yil 30 sentabr
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. T., 2020 y.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun. T.,2019 y
5. O‘zRning —Ta’lim to‘g‘risida||gi qonuni (1997 y. Avg.)
6. Davlat tili haqida (yangi tahriri). O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.—T.: O‘zbekiston, 1997.
7. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. —T.: Sharq, 1997.